




**Yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan korxonalar va tashkilotlarda ishlovchi xodimlarning o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi**

Viloyatda o'rtacha oylik ish haqi yanvar-dekabr oylarida 2674,8 ming so'mni tashkil etib, viloyat hududlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, ya'ni o'rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Shirin shahrida 3775,8 ming so'mni (viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan 141,2 %), Guliston shahrida 3182,6 ming so'mni (119,0 %), Yangiyer shaharida 2913,2 ming so'mni (108,9 %) tashkil etgan.

Boshqa hududlarga nisbatan Guliston tumanida 1996,7 ming so'mni (74,6 %), Sardoba tumanida 2173,8 ming so'mni (81,3 %), Oqoltin tumanida 2181,0 ming so'mni (81,5 %), Mirzaobod tumanida 2222,2 ming so'mni (83,1 %), tashkil etib, viloyatdagi o'rtacha ish haqiga nisbatan kam miqdorga ega bo'lmoqda

**Hududlar bo'yicha viloyat o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan (% da)**





(viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan, % da)

### Sirdaryo viloyati bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi, ming so'm)

(qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik sub'yektlaridan tashqari, ming so'm)

	2020 - yil Yanvar-dekabr	2021 - yil Yanvar-dekabr	O'sish sur'ati, % da
<b>Viloyat bo'yicha jami:</b>	<b>2232,5</b>	<b>2674,8</b>	<b>119,8</b>
<i>shaharlar:</i>			
Guliston	2561	3182	124,3
Shirin	2861	3775	132,0
Yangiyer	2425	2913	120,1
<i>tumanlar:</i>			
Oqoltin	1949	2181	111,9
Boyovut	2223	2252	101,3
Guliston	1852	1996	107,8
Sayxunobod	2301	2539	110,3
Mirzaobod	1716	2222	129,5
Sardoba	1896	2173	114,6
Sirdaryo	1931	2340	121,1
Xovos	2144	2478	115,6

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ish haqi tahlili.

(2021- yilning yanvar –dekabr oylarida)

**Sanoatda** o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 2792,2 ming so'mga to'g'ri keldi va 2020 - yilning mos davri bilan taqqoslaganda 22,0 % ga oshdi.



➤ **Qurilish sohasida** o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 2845,4 ming so'mga to'g'ri keldi va 2020 - yilning mos davri bilan taqqoslaganda 4,2 % ga tushdi.

➤ **Savdo sohasida** o'rtacha nominal hisoblangan ish haqi miqdori 2318,1 ming so'mni tashkil qildi va 2020 - yilning mos davri bilan taqqoslaganda 24,0 % ga tushdi.



➤ **Tashish va saqlashda** o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 1742,7 ming so'mni tashkil qildi va 2020 - yilning mos davri bilan taqqoslaganda 2,8 % ga oshdi.

- **Axborot va aloqa** sohasida o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 2925,9 ming so‘m ga to‘g‘ri keldi va 2020 - yilning shu davri bilan taqqoslaganda 18,9 % ga oshdi.



- **Moliya va sug'urta** faoliyati sohasida o‘rtacha nominal hisoblangan ish haqi miqdori 5939,4 ming so‘mni tashkil qildi va 2020 - yilning mos davri bilan taqqoslaganda 35,2 % ga oshdi.

- **Ta'lim sohasida** o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 2366,4 ming so‘mni tashkil qildi va 2020 - yilning mos davri bilan taqqoslaganda 14,7 % ga oshdi.




- Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar** sohasidagi o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 2294,7 ming so‘mga to‘g‘ri keldi va 2020 - yilning tegishli davri bilan taqqoslaganda 15,3 % ga oshdi.

➤ **Boshqa faoliyat turlari** sohasidagi o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 3060,1 ming so‘mga to‘g‘ri keldi va 2020 - yilning tegishli davri bilan taqqoslaganda 29,0 % ga oshdi.




➤ **2021 - yil yanvar-dekabr oylarida Sirdaryo viloyatida o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2674,8 ming so‘mni (ish haqiga ustama, mukofot, rag‘batlantirish xususiyatiga ega to‘lovlar, kompensatsiya va ishlanmagan vaqt uchun haq kabi to‘lovlar kiritilgan, shuningdek uning tarkibida jismoniy shaxslar daromad solig‘i, ijtimoiy sug‘urta va kasaba uyushmasiga to‘lovlar ham mavjud) tashkil etgan.**

➤ **O‘tgan yilga nisbatan o‘shish sur‘ati 119,8 % ga o‘sgan.**



### O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqqining iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi

(2021 - yil yanvar-dekabr oylarida, qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlarisiz, ming so‘mda )



■ Ish haqi ming so‘mda   
 ■ O‘sinh o‘tgan yilga nisbatan %

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 17.08.2021- yildagi "Ish haqi, pensiyalar, stipendiyalar va nafaqalar miqdorini oshirish to'g'risida"gi PF-6279-sonli Farmoniga muvofiq, 2021- yilning 1-sentabridan boshlab mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori 822 000 so'mni tashkil etadi.

Ma'lumot uchun: "O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi" ko'rsatkichi iqtisodiyotda ish haqini baholashning uslubiy qoidalariga va xalqaro tavsiyalarga muvofiq, muayyan vaqt (soat, oy, yil) davomida xodim tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar (bajarilgan ishlar yoki ko'rsatilgan xizmatlar) evaziga ish beruvchilar tomonidan amaldagi qonun hujjatlariga asoslangan holda, soliq va boshqa to'lovlarni o'z ichiga oluvchi yollanma xodimlarning mehnatiga haq to'lash tarzida jismoniy shaxslarga pul shaklida hisoblangan daromadlardan aniqlanadi.

